

PEDAGOGICAL BASIS OF CREATING INNOVATION IN YOUTH EDUCATION

Umurzaqovna Didor Numonova

Department of “Pedagogy and Psychology” of NavSU

PhD, Associate Professor

Abstract

This article discusses the pedagogical foundations of introducing innovative approaches in youth education, the role and importance of modern educational technologies. It also analyzes the theoretical and practical aspects of the process of creating innovations in the education system.

Keywords

education, upbringing, innovation, pedagogy, methodology, youth, competence, modern technologies.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada yoshlar ta'lim-tarbiyasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishning pedagogik asoslari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimida yangiliklar yaratish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, innovatsiya, pedagogika, metodika, yoshlar, kompetensiya, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические основы внедрения инновационных подходов в образование молодежи, роль и значение современных образовательных технологий. Также анализируются теоретические и практические аспекты процесса создания инноваций в системе образования.

Ключевые слова

образование, воспитание, инновации, педагогика, методология, молодежь, компетентность, современные технологии.

Kirish

Bugungi globalashuv sharoitida yoshlar ta'lim-tarbiyasini zamon talablariga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida yangiliklar yaratish va ularni samarali joriy etish pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Chunki zamonaviy jamiyat raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, kreativ yoshlarni talab etadi.

Innovatsion jarayonlarda, insonparvarlik nuqtai nazarlardan ta'lim-tarbiyaning asl maqsadi har bir yoshni munosabatlari, o'zlashtirish faoliyati, to'la huquqli sub'ektning mustaqil, yuksak

madaniyatli, erkin shaxs ijodkorlikda professional, o'z kasbi va hunarlar ustasi qilib yetishtirishdan iboratdir. Ta'lim- tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma ilmiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan ijodiy va bunyodkorona bilimdonlikni ochib bera bilishi, uning erkinllikka qobiliyati, ijodga ma'suliyatini ochib berishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilar va o'quvchilar faolligini oshirish muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga to'g'ri yo'naltirilgan, jamiyatda jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganini tushunish natijasida vujudga keldi. Kreativlik muammolari ko'p vaqtgacha tadqiqotlar tizimida o'rganilib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida chunonchi, pedagogik o'zgarishlari asosida sifat xarakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi. Ammo bu o'zgarishlarni faqatgina umumiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Kreativ jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur, unda kreativ tahlili faqatgina fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o'z ichiga olmay, balki boshqarish, ta'lim-tarbiya, falsafiy mushohadalarda pedagogika, psixologiya, falsafa, huquq, iqtisodiyot va boshqa sohalarini ham qamrab oladi.

Pedagogik muammolar yechimini izlash, ta'lim sohasida jarayonlarning borishi, xususiyatlari, mazmuni tarkibi va klassifikatsiyasi tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan bog'liq.

Olimlar yangiliklar kiritish va tekshirishni uch bosqichga ajratadilar:

Birinchi bosqich- yangiliklar muvaffaqiyatiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish va turli xil yangiliklarning empirik ma'lumotlarini tahlil qilish.

Ikkinchi bosqich- yangilik kiritish jarayonining o'zini bir soha muhitidan ikkinchi sohaga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birgalikda o'rganish deb qaraydilar.

Uchinchi bosqichda- tadqiqotchi diqqati turli xil vaziyatlarni tahlil qilish, tavakkalchilikni baholash metodlarini ishlab chiqish, yangiliklarni kiritish sohasida tavsiyanomalar yuzaga keltirishlariga qaratiladi. Pedagogik innovatsion jarayonlarni g'arbda 50-yillar oxirlaridan boshlab, bizning mamlakatimizda esa keyingi 10 yillikdan boshlab olimlar maxsus o'rgana boshladilar. Jahon pedagogik jamoatchiligining qiziqishi maxsus xizmat, nashriyot faoliyati jurnallar va informatsion maqolalar ko'rinishida paydo bo'lyapti. Xususan, YUNESKO qoshidagi ta'lim-tarbiyanini rivojlantirish Osiyo pedagogik markaziy Ochiq jamiyat instituti mavjud bo'lib, dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

Bizning mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar faolligini oshirish muammolari bilan shug'ullanayotgan olimlar, keng jamoatchilik pedagoglar faoliyatidagi nazariya va amaliy jarayonlar uyg'unligi, shuningdek malakali kadrlarning o'z ustida, o'quvchilarni ilmiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan o'quv-o'rganuvi tahlillarini asosli ravishda taqdim etishning mukammal yo'llarini qidirib topish, malakaviy yutuqlardagi ijodiy o'zgarishlarga qulay. Moslanuvchan metodlar asosida yondashuvdagi ustoz-shogirdlarning odilona, zukkolik bilan adolatli maktabining tez rivojlanishiga bo'lgan talab bilan bog'liq. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, yangi «yangilik», yangi jarayon tushunchalarini anglash talabi ortadi. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayonlarining mikrostrukturasini o'rganib, olimlar yangilik kiritishning «hayotiy sikli» konustreptik rejalarini, mamlakatimiz tomonidan alohida ko'rsatmalar, konsepsiya va qonunlar asosidagi buyurtmalar berilishi asosiga moslanuvchanlikni ta'minlab borishga asoslanadilar. Aynan shu yangiliklar kiritish davomida bajarilib, natijaviyliklarga erishib boradigan jarayon degan fikrdan kelib chiqadi. Bu jarayon yangilikni yaratish va ijro etishni ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar bosqichli jarayonlarni ayni amalga oshiruvda boshlanishining eng e'tiborga egalik jihatlardan:

- yangi g'oyaning paydo bo'lish yoki yangiliklarning yuzaga kelish bosqichi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar;

- kashf etish bosqichi, ya'ni ob'ekt moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishidagi yangilik yaratishdir. Yaratilgan yangilikning amaliy qo'llanishi uni qo'shimcha ishlab kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish sharti bilan amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinadi. Bu bosqichlarda yangilikning tarqalishiga, uning yangi sohalariga diffuziyalashib (qo'shib), keng tatbiq etilishidan iborat. Yangilikning biror sohaga hukmron bo'lishi, bunda, xususan, yangilik o'z yangiligini yangilanib, yangilik sifatida mavjudlik keyingisiga xizmat qiladi. Yangilik qo'llanishining doirasi qisqarib, uning yangi mahsuldorligi bilan almashadi. Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonlar bir-birini ketma-ket almashtirib, muntazam tizim, uning real rivojlanib borishida amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida taqdim etilayotgan amaliy tadqiqotda belgilab olgan metodlaringizni ijrosi siz bilan amaliy tadqiqotning ishtirokchilarini faol harakati, ijodkorona yondashuvlaridagi ijobiy natijalarning taqdimotida aniqlikka, shuningdek keyingi bosqichlardagi oqilona qarorlarda eng qulay, moslashuvchi variantlarni, xulosalarni taqdim etish bilan bog'liqligi ko'rinadi.

Bu bosqichda yangilikning tarqalishiga, uning yangi sohalariga diffuziyalashib (qo'shib), keng tatbiq etilishidan iborat. Yangilikning biror sohaga hukmron bo'lishi, bunda, xususan, yangilik o'z yangiligini yangilanib, yangilik sifatida mavjudlik keyingisiga xizmat qiladi. Yangilik qo'llanishining doirasi qisqarib, uning yangi mahsuldorligi bilan almashadi. Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonlar bir-birini ketma-ket almashtirib, muntazam tizim, uning real rivojlanib borishining

soddalashtirilgan sxemasini ifodalaydi. Biror aniq jarayon bu bosqichlarni o'z ichiga olib, ular ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligiga so'zsiz rioya qilishi moslanadi. Yangilik kiritishni muvofiq yangilik yaratish va tarqatish kompleksiga maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirishdan iborat bo'lib, bu uning samaradorligini, muntazamligi va hayotiyiligini ta'minlovchi uslub va tizimlarni malum sifat o'zgarishiga olib keladi. Jarayon boshqa sifatli holatga o'tish keyingi qoida va vaziyatlarni qayta "qarab chiqish" bilan bog'liq bo'ladi.

Yangilik kiritish ichki mantiqiy bilim, tafakkur va yo'nalishiga ega bo'lib, yangilik g'oyasi (fikri) tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lgan harakatlarni rivojlantirish hamda jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantiqiyiligini ifodalaydi. Shu tariqa yangilik kiritish dinamik tizim bo'lib, ichki mantiqiylik, tafakkur kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi uning atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Jarayon tuzilishi yangilikni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan birga, yangilikning dinamik xususiyatlari va uning natijalar- tavsiyalar- xulosalar- samaradorlik yakuni hamda samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi yoki uning imkoniyatlari muayyan maqsadlarning amalga oshirganlik darajasi jarayonni hamma bosqichlarida qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq hisoblanadi.

Yangilikning samaradorligini uning natijasidan belgilash, «Yangi» tushunchasi pedagogikada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Agar avvalgi «birinchi yaratilgan» ta'rifi ilgari umuman malum bo'lmagan biror narsa haqida tasavvur bersa, keyingi- «yaqindan beri» va ayniqsa «yangidan ochilgan» kabi ta'riflar esa yangilikda qandaydir daraja «eskilik» elementi, nimadir ilgari bo'lgan biror narsa borligini ifodalaydi. Shu tariqa yangilikning ikki turi haqida gapirish mumkin:

Birinchi marta yaratilgan yangilik, bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

Ta'lim berish va o'qitish birlashtiruvchi ko'rinishli kategoriyalar sifatida pedagogik ishlar va munozaralarda muhimlik tushunchasi bu ta'lim-tarbiyadir. Ta'limning o'ziga xos tomoni, u tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida pedagogik faoliyat, shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib, ana shu uchta asoslardan real pedagogik jarayonni tuzadi, bu jarayon turli ta'lim-tarbiya

konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtiriladi va ta'lim-tarbiya tizimi ta'lim muassasalarida tadbiiq etiladi.

Ta'lim-tarbiya tushunchasi, bu umumiy yaxlit funkuiional va mazmunli kategoriyadir. Ta'lim-tarbiya jarayonida darslar va darsdan tashqari mustaqil tayyorgarliklardagi o'rganuvchining faol harakatlarida o'zining noyob fikrlar, bilimdonlik, ilmiy tafakkur, ijodkorona yondashuvlar ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi. Hozirgi davrda ilmiy jarayonli bosqichlarga mavjudlikdan mavjud sxematik tizimlar funksional ahamiyatlarning ishga tushishi, yangi g'oyaning paydo bo'lishi yoki yangiliklarning yuzaga kelish bosqichi, uni shartli ravishda fundamental ilmiy-amaliy-tekshirishlar natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichlarining joriy etilishi va uni qabul qilib yoshlar hamda barcha kishilarning qo'llab-quvvatlashida foydaliligiga ham bog'liklikda bo'ladi. Yangilik yaratish bosqichi, ya'ni ob'ekt moddiy yoki ma'naviy ma'lumotlarni taqdimoti va namuna ko'rinishidagi yangilik ijrosini ta'minlash, moslanuvchanlikni yaratishdir. Yaratilgan yangilikning amaliy qo'llanishi uni qo'shimcha ishlab kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish va uni amaliy tadqiqotini metodologik asosini ishlab chiqish, uni amalda tadbiiqini sinov-tajribadan o'tkazish va yuqori natijaviy muvaffaqiyat, amalda foydalanishni qulay imkoniyatlarni tavsiyasi, yuqori samarador xulosalarning qullab-quvvatlanishiga, sifatli noyob iqtidor, iste'dodli, ijodkorlarni o'z kasb-hunarining mohir ustalarini tajribalari, ilmiy madaniyatini oshirishi sharti bilan amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinadi. Yangilikning biror sohaga tadbiiqiy namunalariga ega bo'lishi, yaratilgan yangilik o'z yangiligini asoslari bilan yangilanib, yangilik sifatida mavjudlik mavjudlikni ta'minlab berishi lozimligi, shuningdek yoshlar va barcha ishtirokchilarning ilmiy-ma'naviy, ilmiy-amaliy madaniyati darajasini oshirishga xizmat qiladi. Yangilik qo'llanishining doirasi quvvatlanib, uning yangi mahsuldorligi oshishi bilan qanchalik muhimligi bilan mukammalashuvi amalga oshadi.

Innovatsion jarayonlar bir-birini ketma-ket almashtirib, muntazam tizim, uning real rivojlanib borishlarining kamoloti bilan bajarilish tartibini amaliy istiboliga yetkazadi. Aniq jarayon bosqichli ahamiyatni belgilab, ularni o'z ifodasini, tizimlilik funksiyalarini qonunlari, ta'rif va amaliy namunalar yaratilashiga olib keladi va kelajakni belgilovchi sifatleri o'zaro bog'liqlik sistemalariga aylanadi. Yangilik kiritishni muvofiq yangilik yaratish va tarqatish kompleksiga maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi o'quvchi yoshlarni, insonlar ilmiy nuqtainazarlarida talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirishdan iborat bo'lib, bu uning samaradorligini, muntazamligi va hayotiyiligini ta'minlovchi uslub va tizimlarni malum sifat o'zgarishiga olib keladi. Jarayon boshqa sifatli holatga o'tish keyingi qoida va vaziyatlarni qayta "qarab chiqish" bilan bog'liq bo'ladi. Yangilik kiritish ichki mantiqiy bilim, tafakkur va yo'nalishiga ega bo'lib, yangilik g'oyasi tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lgan harakatlarni rivojlantirish hamda jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantiqiyiligini ifodalaydi. Shu tariqa yangilik kiritish dinamik tizim bo'lib, ichki mantiqiylik, tafakkur kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi uning atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Jarayon tuzilishi yangilikni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan birga, yangilikning dinamik xususiyatlari va uning natijalar-tavsiyalar- xulosalar- samaradorlik yakuni hamda samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi yoki uning imkoniyatlari muayyan maqsadning amalga oshirganlik darajasi jarayonning hamma bosqichlarida qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. PQ-637,23.09.2020y
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - «O'zbekiston» - 2016y, 12 bl.

3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy lavobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 55 nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston”, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston”, 2017.
7. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 1996.
8. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
9. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012.
10. R.Xamdamiyov va boshqalar. Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010 y.
11. T.Rixsiboyev, X.Rixsiboyeva, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi. Darslik. Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2018. -304 b. 7. Munavvarov A.K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi. 1996 y.
12. Yo'ldoshev J. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi. 2000 y. 56